

**FUQAROLIK ISHLARI BO‘YICHA BIRINCHI INSTANSIYA SUDLARIDA  
SODDALASHTIRILGAN TARTIBIDA ISH YURITISHNING O‘ZIGA  
XOS XUSUSIYATLARI**

*Bazarbayeva Zebo Baxadirovna*

*O‘zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi*

*Sudyalar oliy maktabi tinglovchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola orqali fuqarolik protsessida soddallashtirilgan tartibida ish yuritish tushunchasi, huquqiy asoslari, ahamiyati va protsessual jihatlari ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, soddallashtirilgan tartibida ish yuritishda yuzaga keladigan amaliyotdagi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va mulohazalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** odil sudlov, soddallashtirilgan tartibida ish yuritish, arz qilinadigan talablar, da’vogar javobgar, fuqarolik protsessi

O‘zbekiston Respublikasining 16.09.2021 yildagi “Sudga murojaat qilish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi va fuqarolik protsessiga soddallashtirilgan ish yuritish tartibi joriy etilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-716-sonli Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi qo‘shimcha, 25-1-bob soddallashtirilgan tartibda ish yuritish bo‘yicha to‘ldirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining “Soddallashtirilgan tartibda ish yuritish” deb nomlangan 25<sup>1</sup>-bobi 5 ta moddadan, ya’ni FPKning 279-1-moddadan 279-5-moddalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Unda ishni soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish, soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ishlar, soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqiladigan ish bo‘yicha da’vo arizasiga doir talablar, ishni soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqishning o‘ziga xos xususiyatlari va soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha hal qiluv qarorlariga nisbatan qo‘yilgan talablar o‘z ifodasini topgan.

Har qanday holatda ham nizolashuvchi taraflar ishni sudgacha olib bormasdan o‘zaro muzokara yo‘lini tanlashdan, dalillar yuzasidan o‘zaro fikrlashishdan manfaatdor hisoblanadi. Biroq nizolarni sudgacha hal qilishda turli obyektiv-subyektiv sabablarning mavjudligidan (adolatsizlikdan) so‘nggi chora sifatida sudlarga murojaat qilish holatlari ko‘p kuzatilmoqda. Aslida, bu masala o‘sha vakolatli mansabdor shaxs vakolati doirasida hal qilinsa, qonun ustuvorligi ta‘minlansa sudlarda kundan kunga ko‘payib borayotgan fuqarolik ishlarining biroz kamayishiga, tez va o‘z vaqtida ko‘rib, hal etilishiga zamin yaratadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar fuqarolik protsessida taraflarni o'zaro murosaga keltiradigan, yarashtiradigan, ishning xususiyati va turiga qarab maxsus soddalashtirilgan va jadallashtirilgan tartib-taomillarni joriy etish yo'lini tanlagan. Xususan, Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH kabi davlatlarning fuqarolik protsessual qonunchiligida fuqarolik ishlari uch turdagi, ya'ni oddiy, standart va murakkab tartib-taomillarga ajratilib ko'riladi.

Germaniyada fuqarolik ishlarini sudda ko'rish va hal etish nafaqat sudyalarning sonini ko'paytirish orqali, balki sud ishlarini hal etishning soddalashtirilgan va jadallashtirilgan tartib-taomillarini joriy etish evaziga tezlashgan. Shuning uchun ham nemis qonunchiligi fuqarolik protsessini soddalashtirish bo'yicha bir necha bor jiddiy islohotlarga duch kelgan va oqibatda "Soddalashtirish, jadallashtirish va sudyalarning yuklamalari bo'yicha qonunlar va qonunlar to'plami" deb nomlangan maxsus qonunlar qabul qilingan<sup>1</sup>.

Shuningdek, Germaniya fuqarolik protsessual qonunchiligida sud ishlarini soddalashtirilgan tartibda yuritish quyidagi bir qator shartlarga asoslangan:

birinchisi, talabning mazmuniga (ayniqsa, pul majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq talablarga);

ikkinchisi, taraflarning kelishuviga (yoki e'tirozning bo'lmasligiga);

uchinchisi, yozma dalillarning asoslanganligiga (kuchiga) tayanadi.

Fuqarolik ishlari yuzasidan tuzilgan kelishuv bitimini rasmiylashtirishda soddalashtirilgan usulning qo'llanishi alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, ushbu bosqichda ish bo'yicha guvohlar jalb etilmaydi hamda ishdagi mavjud dalillarni sud tekshirmaydi va baholamaydi. Shuningdek, taraflarning kelishuv bitimi sud hal qiluv qarorlari kabi kuchga ega bo'lgan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Ish yuzasidan kelishuvga erishilmagan taqdirdagina ish sudlov bo'limida mazmunan hal qilinadi<sup>2</sup>. Soddalashtirilgan ish yuritish da'vo ishini yuritishning umumiy qoidalariga ko'ra, o'ziga xos xususiyatlar hisobga olingan holda sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Agar da'voning bahosi yuridik shaxslarga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan, yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan o'n baravaridan, jismoniy shaxslarga nisbatan esa besh baravaridan oshmasa, da'vo arizalari bo'yicha ishlar soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqilishi lozim.

Agar ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqish chog'ida quyidagi ya'ni,

1) ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko'rib chiqish davlat sirining, tijorat sirining yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirning oshkor etilishiga olib kelishi mumkin bo'lsa;

2) qo'shimcha holatlarni aniqlash yoki qo'shimcha dalillarni tekshirish, shuningdek dalillarni ular turgan joyda ko'zdan kechirish va tekshirish, ekspertiza tayinlash yoki guvohlarning ko'rsatuvlarini eshitish zarur bo'lsa;

3) bildirilgan talab boshqa talablar bilan bog‘liq bo‘lsa, shu jumladan uchinchi shaxslarga taalluqli bo‘lsa yoki mazkur ish bo‘yicha qabul qilingan sud hujjati bilan uchinchi shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari buzilishi mumkin bo‘lsa;

4) ishni soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqish chog‘ida ushbu bobda belgilangan qoidalar bo‘yicha ko‘rib chiqilishi lozim bo‘lmagan qarshi da‘vo berilgan bo‘lsa, sud ishni da‘vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rish haqida ajrim chiqaradi.

Ishni da‘vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rishga o‘tish to‘g‘risidagi ajrimda umumiy tartibga o‘tish uchun asoslar ko‘rsatiladi. Ajrim chiqarilganidan keyin ishni ko‘rish boshidan boshlanadi.

O‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir nechta talab bildirilgan bo‘lib, ulardan biri ushbu moddaning birinchi qismida ko‘rsatilgan talablarga taalluqli bo‘lgan, boshqalari esa ularga taalluqli bo‘lmagan taqdirda, barcha talablar da‘vo ishini yuritishning ushbu Kodeksda belgilangan umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rilishi lozim.

Ishni ko‘rish muddati ishni da‘vo ishini yuritishning umumiy qoidalari bo‘yicha ko‘rib chiqish to‘g‘risida ajrim chiqarilgan kundan e‘tiboran hisoblanadi.

Mazkur norma talabiga ko‘ra, istisnolar bo‘lmagan holatda da‘vogarning iltimosnomasiga ko‘ra, javobgarning roziligi bilan boshqa ishlar ham soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilishi mumkin. Aytish lozimki, ushbu tartibda ish yuritish fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar uchun yangi amaliyot hisoblanadi.

Bu tartibda ish yuritishda hamda da‘vo arizasi berilib, arizaga nisbatan FPKning 189, 191-moddasidako‘zda tutilgan talablar qo‘yiladi.

Shuningdek, arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish to‘g‘risidagi sudning ajrimida ish soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rilishida ish ko‘rib chiqiladigan sanako‘rsatiladi, shu bilan birga ajrimda javobgarga da‘vo arizasiga doir yozma fikrni hal qiluv qarori qabul qilinguniga qadar taqdim etish zarurligi ko‘rsatiladi.

Sud ajrimi bilan bir vaqtda javobgarga da‘vo arizasi (arizaning) va ilova hujjatlar ko‘chirma nusxalari darhol pochta orqali yoki elektron hujjat tarzida axborot tizimi orqali yuboradi.

Javobgar da‘vo arizasiga doir yozma fikrini sudga o‘zi asoslanayotgan hujjatlar va dalillarni ilova qilgan holda taqdim etishga haqli.

Yozma fikrga uning ko‘chirma nusxasi da‘vogarga yuborilganligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi. Da‘vo arizasiga doir yozma fikr javobgar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi. Javobgar tomonidan da‘vo arizasiga doir yozma fikr taqdim etilmaganligi da‘vo arizasini soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqishga to‘sqinlik qilmaydi.

Soddalashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilayotgan ish arizani ish yuritishga qabul qilish va ish qo‘zg‘atish haqida ajrim chiqarilgan kundan e‘tiboran

yigirma kundan (umumiy tartibda 1 oy) oshmagan muddatda sudya tomonidan yakka tartibda ko‘rib chiqiladi. Sud soddallashtirilgan ish yuritish tartibidagi ishni sud muhokamasini o‘tkazmasdan, taraflarni chaqirtirmasdan va ularning tushuntirishlarini eshitmasdan ko‘rib chiqadi.

Sud taraflar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda bayon qilingan tushuntirishlarni, e‘tirozlarni va (yoki) vajlarni tekshiradi, dalillar bilan tanishadi hamda hal qiluv qarorini qabul qiladi. Soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha hal qiluv qarori qabul qilinadi.

Soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha hal qiluv qarori, agar apellyatsiya shikoyati (protesti) berilmagan bo‘lsa, qabul qilinganidan keyin o‘n kun (umumiy tartibda 1 oy) o‘tgach qonuniy kuchga kiradi. Hal qiluv qarori ustidan apellyatsiya shikoyati (protesti) u sudga kelib tushgan kundan e‘tiboran o‘n besh kun ichida ko‘rib chiqiladi.

Qabul qilingan hal qiluv qarori sud tomonidan beriladigan ijro varaqasi asosida ijro etilishi lozim. Apellyatsiya shikoyati (protesti) berilgan taqdirda hal qiluv qarori, agar u bekor qilinmagan bo‘lsa, apellyatsiya instansiyasi sudining qarori qabul qilingan kundan e‘tiboran qonuniy kuchga kiradi.

Soddallashtirilgan ish yuritish tartibida ko‘rib chiqilgan ish bo‘yicha hal qiluv qarori apellyatsiya va kassatsiya tartibida, shu jumladan kassatsiya instansiyasi sudida takroran, shuningdek yangi ochilgan holatlar bo‘yicha qayta ko‘rib chiqilishi mumkin. Ushbu institutning da‘vo, alohida tartibdagi ish yuritishdan farqi sud muhokamasi o‘tkazilmaydi, sud buyrug‘idan farqi ish bo‘yicha hal qiluv qarori qabul qilinib, qaror nizoli ishlar bo‘yicha qabul qilinadi.

**Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki**, fuqarolik sud ishlarini yuritish bo‘yicha sudlar faoliyatini jadallashtirish, odil sudlovga yo‘l ochish va uning uchun shart-sharoit yaratish borasidagi vazifalarni hal etish ko‘p jihatdan sud ishlarini yuritishning maxsus soddallashtirilgan tartib-taomillarini joriy etish hamda uncha murakkab bo‘lmagan va keng ko‘lamdagi sud muhokamasini talab etmaydigan nizolarni muqobil hal etish usullarini qo‘llash bilan bog‘liqdir. Zero, da‘vo taqdim etishdan to sud hal qiluv qarorini chiqarguncha bo‘lgan yo‘l qanchalik qisqa va yengil bo‘lsa, protsess shuncha takomillashgan bo‘ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsesual kodeksi
2. O‘zbekiston Respublikasining 16.09.2021 yildagi “Sudga murojaat qilish uchun yanada qulay sharoitlar yaratilishi va fuqarolik protsessiga soddallashtirilgan ish yuritish tartibi joriy etilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-716-sonli Qonunig

3. Вершинин А.П. Способы защиты гражданских прав в суде. Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Санкт-Петербург. 1998, – 40 с.
4. Stein F. Kommentar zur Zivilprozessordnung. Tubingen. 1984. S. 82.; Baur F. Zivilprozessrecht. Frankfurt am Mein. 1985. S. 25—49; Jauernig O. Zivilprozessrecht Munchen, 1985. S. 70—100.
5. <https://huquqburch.uz/fuqarolik-sudlarida-soddalashtirilgan-tartibda-ish-yuritish/>
6. <https://uza.uz/posts/319809>